

**SCIENCE  
PROBLEMS.UZ**

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences  
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar  
fanlarning dolzARB  
muammolari**

Jild 3, Son 12/1

**2023**

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ  
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

**№ 12/1 (3)-2023**

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**ТОШКЕНТ-2023**

## **БОШ МУҲАРРИР:**

Исанова Феруза Тулқиновна

## **ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:**

### **07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:**

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Укташ Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

### **08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:**

Карлибаева Раја Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўкташович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Ҳатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Ҳамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б., Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

### **09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:**

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яҳшиликов Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гулнора Абдукахаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

### **10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:**

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шуҳрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салаҳутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Рахман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Сайдов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

### **12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:**

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуротовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Ҳуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфизилиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси

Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Файбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амирнов Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судъялар олий кенгаши хузуридаги Судъялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич – юридик фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Тошкент давлат юридик университети.

### **13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:**

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети хузуридаги

педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази; Тайланова Шохида Зайневна – педагогика фанлари доктори, доцент.

### **19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:**

Каримова Васила Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарқанд вилоят ИИБ Тиббиёт бўйими психологик хизмат бошлиғи.

### **22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:**

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Марҳабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

### **23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР**

Назаров Насридин Атакуллович –сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич –сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

## **ОАК Рўйхати**

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари** электрон журнали 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.  
Муассис: "SCIENCEPROBLEMS TEAM"  
масъулияти чекланган жамият.

### **Таҳририят манзили:**

Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик

Бешёғоч кўчаси, 70/10-үй. Электрон манзил:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

Телеграм канал: [https://t.me/scienceproblems\\_uz](https://t.me/scienceproblems_uz)

## **МУНДАРИЖА**

### **07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ**

<i>Елмуратов Икматулла Гайбуллаевич</i> ҚОРАҚАЛПОҒИСТОНДАГИ БИРИНЧИ ТАДҚИҚОТ ИНСТИТУТИ ТАРИХИ (1931-1936 ЙИЛЛАР) .....	12-18
<i>Qitaybekov Azizbek Kenesbek o'g'li</i> QORAQALPOG'ISTONDA HAVO TRANSPORTINING SHAKLLANISHIDA "DOBROLET" AKSIYADORLIK JAMIYATINING O'RNI .....	19-23
<i>Nawrizbaeva Nurjamal Qudaybergenovna</i> QORAQALPOQLARNING GILAMCHILIGI BILAN BOG'LIQ BA'ZI MAROSIMLAR .....	24-29
<i>Сайдуллаев Фаррух Умедулло ўғли</i> МУҲАММАД ҲАКИМ ТЕРМИЗИЙНИНГ ЭТНОЛОГИК ВА ЭТНОГРАФИК ТАДҚИҚОТЛАРИ .....	30-35
<i>Berdiqulov Mirolim Tugalvoyevich</i> TO'DA-1 NEOLIT MAKONINING O'ZBEKISTON TOSH DAVRI ARXEOLOGIYASINI O'RGANISHDAGI O'RNI .....	36-40
<i>Olimjonova Gulida Olimjon qizi</i> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA DAVLAT BOJXONA XIZMATI ORGANLARI FAOLIYATI ..	41-47
<i>O'ng'arov Lazizbek Amiriddin o'g'li</i> NUROTA TOG' TIZMASINING TOSH DAVRI ARXEOLOGIYASINING O'RGANILISH TARIXI..	48-53
<i>Rahmonov Faxriddin Shoymardonovich</i> MILLIY DEHQONCHILIK MADANIYATINI ETNO-TARIXIY MANBALARDA AKS ETISHI (JANUBIY O'ZBEKISTON MISOLIDA) .....	54-58
<i>Tilavboyev Muhammad</i> JIZZAX VOHASIDA OT BILAN BOG'LIQ URF-ODATLAR VA MAROSIMLAR .....	59-63
<i>To'xtaboyev Xurmatullo Shomirza o'g'li</i> O'ZBEKISTON ILM-FANI RIVOJIDA FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETINING O'RNI (MUSTAQILLIK YILLARI MISOLIDA) .....	64-68
<i>Рахматиллаев Хасанбой</i> МАРКАЗИЙ ОСИЁНИНГ ҚАДИМГИ ДАВР ЭТНИК ТАРИХИНИ ЁРИТИШДАГИ АЙРИМ МУАММОЛИ МАСАЛАЛАР ВА УСУЛЛАРГА ДОИР .....	69-74
<i>Qurbanova Manzila Boqiyevna</i> BUXORO VOHASI MILLIY SHIRINLIKHLARI VA ICHIMLIKHLARI .....	75-80
<i>Ravshanova Gulora</i> QASHQADARYO VOHASIDA MUNTAZAM QUROLLI HARAKATLAR TA'MINOTI (XX-asrning 20- yillarida) .....	81-85
<i>Зарипбаев Уснатдин Оракбаевич</i> ИККИНЧИ ЖАҲОН УРУШИ ЙИЛЛАРИДА ҚОРАҚАЛПОҒИСТОН АССР ПРОКУРАТУРА ОРГАНЛАРИ ФАОЛИЯТИ .....	86-90

<i>Baxronov Abdullo Haydar o'gli</i>	
O'ZBEKISTONDA TOSH DAVRI ARXEOLOGIYASINI O'RGANISHDA XALQARO EKSPEDISIYALARINING O'RNI .....	91-95
<i>Maxmatqulov Jasur Isroil o'g'li</i>	
GIYOHVANDLIKKA QARSHI KURASH MAVZUSINING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI .....	96-101
<i>Eanova Nilufar</i>	
O'ZBEKİSTON-TURKİYA HAMKORLIGI VA UNİNG NATİJASI (TO'QIMACHILIK SANOATI MISOLIDA) .....	102-106
<i>Норбоев Сарвар Қахрамон ўғли</i>	
АФРОСИЁБДАГИ СҮФД МУДОФАА ДЕВОРИГА ОИД ТАДҚИҚОТЛАРНИНГ ЎРГАНИЛИШИ (XX АСРНИНГ 50-80-ЙИЛЛАРИ).....	107-111
<i>Эсонов Зиёдбек Юлдашевич</i>	
ФАРГОНА ВОДИЙСИ АҲОЛИСИ ТЎҚИМАЧИЛИК ҲУНАРМАНДЧИЛИГИ АНЪАНАЛАРИ .....	112-117
<i>Tishabayeva Irodaxon Rasulovna</i>	
1960-1970 YILLARDA O'ZBEKISTONDA MAKTABGACHA TARBIYA MUASSASALARI FAOLIYATI .....	118-124
<i>To'xtamisheva Fotima Musurmonovna</i>	
MUSTAQILLIK YILLARIDA QASHQADARYO VOHASI KASHTADO'ZLIGIDA O'ZGARISHLAR.....	125-132
<i>Sattorov Nurbek</i>	
SHIMOLIY BAQTRIYA VA ZARAFSHON MINTAQALARIDA DEHQONCHILIK VA CHORVACHILIK MADANIYATI SOHIBLARI ETNOMADANIY ALOQALARINING O'ZBEK XALQI ETNOGENEZEI SHAKLLANISHIDAGI O'RNI .....	133-138
<i>Hazratov Nurali Burxon ug'li</i>	
QADIMGI KESH VILOYATI HUDUDIDAGI ARXEOLOGIK YODGORLIKALARINING O'RGANILISH TARIXIDAN .....	139-144
<i>Mamatqulov Bekzod Sherozovich</i>	
O'ZBEKISTONDA GAZ-OLTINGUGURT SANOATINING YUZAGA KELISHI VA UNING RIVOJLANISH TARIXI (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA) .....	145-149
<i>Berdiyev Jamshid</i>	
VOHA JOY NOMLARINING SHAKLLANISHIDA ETNONIMLAR VA PATRONIMLARNING TUTGAN O'RNI .....	150-155
<i>Djurakulov Sherzod Davronovich</i>	
SAMARQAND VILOYATI HUDUDIDI TOSH DAVRI ARXEOLOGIYASINING O'RGANILISHI TARIXI .....	156-161
<i>Курбанова Дилрабо Шерипбоевна</i>	
ПАРЛАМЕНТ ТАРИХИ ВА ТАРИХШУНОСЛИГИ .....	162-172

<i>Zuxriddin Boltayevich Juнаев</i> ХОРАЗМДА РЕСПУБЛИКА ТУЗУМИ: ЮТУҚЛАР ВА МУАММОЛАР (1920-1924 йиллар) .....	173-181
<i>Mamatdiev Boxodir Bobojonovich</i> QASHQADARYO MUZEYIDAGI NODIR OSTODON .....	182-186
<i>Norqo'chqarov Xushvaqt Eshnazarovich</i> AFG'ONISTONDA O'ZBEK TILINING QONUNIY ASOSLANISHI, O'ZBEKLAR IJTIMOIY-MADANIY HAYOTIDAGI O'RNI (XX ASR – XXI ASR BOSHLARI) .....	187-197
<i>Ibragimov Rahmon Ziyodullaevich</i> ТОШКЕНТ ВОҲАСИ СҮНГИ БРОНЗА ДАВРИ ТАРИХИ ТИЗИМИДА: Дағн үдуми ва миграция масалалари .....	198-203
<i>Azamatova Gulmira Bayirbekovna</i> ОДАМ САВДОСИГА УЧРАГАН МИГРАНТ ХОТИН-ҚИЗЛАР ҲАҚИДА БАЪЗИ МУЛОҲАЗАЛАР .....	204-208
<i>Tishabayeva Irodaxon Rasulovna</i> 1960-1970 YILLARDA O'ZBEKİSTONDA MAKTABGACHA TARBIYA MUASSASALARI FAOLIYATI .....	209-215
<b>08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ</b>	
<i>Ostonokulov Azamat Abdurakovich, Inoyatov Mardonbek Mo'min o'g'li</i> DAVLAT SEKTORIDA ICHKI AUDITNING XALQARO STANDARTLARI .....	216-226
<i>Kurbaniyazov Shaxzodbek Karimovich</i> O'ZBEKİSTONDA KORPORATIV BOSHQARUV TASHKILIY- IQTISODIY MEXANIZMI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING NAZARIY VA USLUBIY ASOSLARI .....	227-232
<i>Отабеков Отажон Гайрат ўғли</i> ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИДА ОПТИМАЛ СОЛИҚ ЮКИ ВА ИҚТИСОДИЙ ЎСИШ МАСАЛАЛАРИ .....	233-243
<i>Шакирова Фарғат Болтаевна</i> ИННОВАЦИОН ИҚТИСОДИЁТНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА БАҲОЛАШ ИНДИКАТОРЛАРИНИНГ АҲАМИЯТИ .....	244-255
<i>Мамбетназаров Бахыт Бисенбаевич</i> ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИДА ТАДБИРКОРЛИК СУБЬЕТЛАРИНИНГ РИВОЖЛАНТИРИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ .....	256-263
<i>Jumaniyazova Ro'za Quvondiq qizi</i> TURIZM INFRATUZILMASI TUSHUNCHASI VA UNING O'ZIGA XOS JIHATLARI .....	264-269
<i>Matniyozov Murodjon Rajabbayevich</i> DESTINATSIYA IMIDJINI SHAKLLANTIRISHDA TURISTLARNING SODIQLIGI VA QONIQISHINING AHAMIYATI .....	270-278

<i>Хамирова Зарифа Урол қизи</i>	
ДАВЛАТ СЕКТОРИДА ИЧКИ АУДИТ ВА ДАВЛАТ МОЛИЯВИЙ НАЗОРАТ ТАДБИРЛАРИНИ ТАШКИЛ ЭТИШ ЙЎНАЛИШЛАРИ .....	279-291
<i>Toshaliyeva Saodat Toxirovna</i>	
KICHIK TADBIRKORLIK TUSHUNCHASI VA UNING IJTIMOIY-IQTISODIY MOHIYATI ....	292-296
<i>Худойназаров Фахрутдин Хаитович</i>	
ИБН ХАЛДУННИНГ ИҚТИСОДИЁТГА ТАВСИЯЛАРИ .....	297-304
<i>Nurullayev Hoshimjon Hamidovich</i>	
GASTRANOMIYANING TURIZM RIVOJLANISHIDAGI AHAMIYATI .....	305-313
<i>Кадырова Шарофат Амоновна</i>	
ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ РАЗВИТИЯ СФЕРЫ УСЛУГ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ....	314-323
<i>Бегматова Зиёда Захиджановна</i>	
ДАВЛАТ ИНТЕРАКТИВ ХИЗМАТЛАРИ ТИЗИМИ АСОСИДА КАДРЛАР БАНДЛИГИНИ ВА УЛАРГА ТАЛАБНИ БАҲОЛАШ .....	324-332
<i>Shafkarov Bakhrom Khudoyberdievich</i>	
TERRITORIAL FEATURES AND THEIR EFFECTIVE USE IN THE CULTIVATION OF VITICULTURE PRODUCTS .....	333-340
<i>Masharipova Fazilat Axmedovna</i>	
OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA RAQAMLI IQTISODIYOTNING AHAMIYATI .....	341-348
<i>Мусинов Дишод Султанович</i>	
ХИЗМАТ КЎРСАТИШ СОҲАСИННИНГИЖТИМОЙ ВА ИҚТИСОДИЙ САМАРАДОРЛИГИИҚТИСОДИЙ ЎСИШ ОМИЛИ СИФАТИДА .....	349-359
<i>Шакирова Юлдуз Сайдалиевна</i>	
ВОПРОСЫ РАЗРАБОТКИ ДОРОЖНОЙ КАРТЫ АКТИВИЗАЦИИ ИННОВАЦИОННЫХ ПРОЦЕССОВ .....	360-368
<i>Абдиовохидов Мамуржон Авазхон ўғли</i>	
РАҚАМЛИ ИҚТИСОДИЁТ ШАРОИТИДА ХИЗМАТ КЎРСАТИШ СОҲАСИНГ МАЗМУНИ, ТАВСИФИ ВА РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎНАЛИШЛАРИ .....	369-380
<i>To'xtasinova Muxayyo Mirzasultonovna</i>	
DAVLATNING INNOVATSION TIZIMINI SHAKLLANTIRISH MASALASIGA .....	381-388
<i>Курбанова Раҳима Джамшедовна, Мирзаева Ширин Нодировна</i>	
РОЛЬ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО КАПИТАЛА В СТИМУЛИРОВАНИИ ИННОВАЦИОННОГО РАЗВИТИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ .....	389-403
<i>Набиева Нилуфар Муратовна</i>	
ОСОБЕННОСТИ КОМПЛЕКСА МАРКЕТИНГОВОГО ПРОДВИЖЕНИЯ КОМПАНИИ В ЦИФРОВОЙ СРЕДЕ .....	404-416

<i>Safarov Radjabboy Eshmukhammadovich</i>	
KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHDA INDIVIDUAL DAROMADGA SOLIQLAR MEXANIZMIDAN SAMARALI FOYDALANISH MASALALARI .....	417-428
<i>Sharipova Zulayho</i>	
SANOAT TARMOQLARI KLASTERLARINI RIVOJLANTIRISH VA SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI .....	429-434
<i>Шарипов Акбар Илхамович</i>	
ЧАКАНА САВДО КОРХОНАЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА РА҆КАМЛИ МАРКЕТИНГНИ РОЛИ .....	435-440
<i>Хаджаев Хабибулла Сагдуллаевич</i>	
ОБЪЕКТИВНАЯ НЕОБХОДИМОСТЬ И ЭКОНОМИЧЕСКАЯ СУЩНОСТЬ АНТИМОНОПОЛЬНОЙ ПОЛИТИКИ В РАЗВИТИИ НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ.	441-447
<i>Xamzayeva Dilfuza Samarovna</i>	
SURXANDARYO VILOYATIDA TURISTIK MAHSULOTLARNI BAHOLASH VA SAMARALI RIVOJLATIRISH IMKONIYATLARI .....	448-452
<i>Усманова Насиба Акбаржоновна</i>	
ПУТИ РАЗВИТИЯ МЕНЕДЖМЕНТА В СФЕРЕ УСЛУГ .....	453-459
<i>Исхакова Сарвар Аюбовна</i>	
ЦИФРОВАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ И ЕЕ ВЛИЯНИЕ НА ЗАНЯТОСТЬ И КВАЛИФИКАЦИЮ ПЕРСОНАЛА В СФЕРЕ БЫТОВОГО ОБСЛУЖИВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ .....	460-467
<i>Ollanazarov Bekmurod Davlatmuratovich</i>	
INNOVATSION TADBIRLIKNI MOLIYALASHTIRISHDA MUQOBIL MOLIYALASHTIRISH VOSITALARIDAN FOYDALANISH VA UNI TURISTIK XIZMATLAR SOHASIDA QO'LLASH IMKONIYATLARI .....	468-479
<i>To'ychiyeva Nodira G'ulom qizi</i>	
OLIY TA'LIMNI BOSHQARISHDAGI INNOVATSIYALAR. CHAT GPT YOHUD SUN'YIY INTELLEKT .....	480-485
<i>Абдураҳимова Саида Аҳмаджановна, Адилова Гўзал Абзаловна</i>	
ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИДА КИЧИК БИЗНЕС СУБЪЕКТЛАРИ ТАРКИБИЙ ҚИСМЛАРИНИНГ БАРҚАРОР РИВОЖЛANIШ ТАҲЛИЛИ .....	486-494
<i>Maxsudov Sherzod Solijonovich</i>	
TO'QIMACHILIK SANOATI KORXONALARIDA INVESTITSION MUHIT JOZIBADORLIGINI BOSHQARISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI .....	495-500
<i>Tadjibekova Dilnoza Bakhtiyorovna</i>	
ENHANCING FINANCIAL RESOURCE FORMATION IN BUSINESSES .....	501-506
<i>Radjabova Malika Ziyodullayevna</i>	
AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASH ISTIQBOLLARI XUSUSIDA .....	507-512

**09.00.00 - ФАЛСАФА ФАНЛАРИ**

<i>Asraqulova Adiba Nabiyevna</i>	
ZAMONAVIY DAVRDA IQTISODGA FALSAFIY QARASHLAR .....	513-520
<i>Жўраев Аҳмад Муҳаммадиевич</i>	
ТИНЧЛИКПАРВАРЛИК ФОЯЛАРИНИНГ ЖАМИЯТ ТАРАҚҚИЁТИДАГИ АҲАМИЯТИ .....	521-530
<i>Гуламова Мавжуда Ташиулатовна</i>	
АХМАД ЗИЁУДДИН АЛ-КУМУШХОНАВИЙ АСАРЛАРИДА КОМИЛ ИНСОН ФОЯЛАРИНИНГ ФАЛСАФИЙ ТАҲЛИЛИ .....	531-538
<i>Abduxolikova Nasiba Alijonovna</i>	
YOSHLARNING ONLAYN TA'LIM JARAYONIGA TA'SIR ETUVCHI IJOBIY SALBIY OMILLAR .....	539-544
<i>Yazdonov Zikirillo Shukurilloyevich</i>	
QALANDARIYLIK VA UNING INSON, JAMIYAT TIZIMIDAGI O'RNI .....	545-552
<i>Sharipova Barno Salimovna</i>	
BIOETIK MADANIYATNING RIVOJLANISH BOSQICHLARI VA UNING ZAMONAVIY IMIJI .....	553-558
<i>Xalikulova Umida Rustamovna</i>	
AXBOROT MUHITINING OLIY TA'LIMGA TA'SIRI: KONSTRUKTIV VA DESTRUKTIV OMILLAR .....	559-564
<i>Abbasova Maftuna Subxonovna, Temirova Xurshida</i>	
OILA VA NIKOH MA'NAVIYATI, OILANI MUSTAHKAMLASH OMILLARI .....	565-571
<i>Tog'ayev Nodirjon Ergashevich</i>	
AJDODLARIMIZ BOY ILMIY MEROSINING O'ZBEKİSTONDA MA'RIFATLI JAMIYAT QURISH HAMDA YOSHLAR TARBIYASIDA TUTGAN O'RNI .....	572-576
<i>Kipchoqov Xomidjon Gulomovich</i>	
JAVOBGARLIK PRINSIPINI SHAKLLANTIRISH AXLOQSHUNOSLIKNING ASOSIY MASALASI SIFATIDA .....	577-581
<i>Raximova Rayxon Abdurasulovna</i>	
ZAMONAVIY OILADA MA'NAVIY-AXLOQIY QADRIYATLARNI SHAKLLANTIRISH: MUAMMONING NAZARIY VA USLUBIY TAHLILI .....	582-586
<i>Аззамова Нилюфар Шухратовна</i>	
"АДАБ АЛЬ-ТАБИБ" КАК ИСТОЧНИК НАЦИОНАЛЬНОЙ БИОЭТИКИ .....	587-591
<i>Axmadiyev Nuriddin Muxutdinovich</i>	
INTELLEKTUAL MADANIYAT YOSHLARNING INNOVATSION FAOLLIGINI OSHIRISHNING MUHIM MEZONI SIFATIDA .....	592-596
<i>Nabiiev Mansur Jamxur o'g'li</i>	
DEMOKRATIK JAMIYAT TARAQQIYOTIDA IJTIMOIY G'OYALAR EVOLYUTSIYASI VA MODERNIZATSİYASI .....	597-603

<i>Kenjayeva Dilrabo Romanovna, Xaydarova Larisa Sunnatovna</i>	
GLOBALLASHUV SHAROITIDA MILLIY MADANIYAT SOHASIDAGI O'ZGARISHLARNING O'ZIGA XOS JIHATLARI .....	604-609
<i>Abduraximova Tursunoy Abduvoxid qizi</i>	
O'ZBEKISTONDA OLIY TA'LIM TRANSFORMATSIYASINING FALSAFIY MOHIYATI .....	610-615
<i>Tagayev Ganisher Xasanovich</i>	
YOSHLAR ETNOESTETIK DUNYOQARASHINI RIVOJLANTIRISHDA BADIY-ESTETIK OMILLARNING O'RNI .....	616-625
<i>Шоназаров Жамишид Шухратович</i>	
БЕҲБУДИЙ ВА УНИНГ ДАВЛАТЧИЛИК ФОЯСИ .....	626-630
<i>Ҳамраев Сироҷ Аbruевич</i>	
ЖАМИЯТ ЯНГИЛАНИШИ ВА ТАДБИРКОР МАҶНАВИЯТИ .....	631-637
<i>Nabiyev Bekzod Muxammadumarovich</i>	
MAFKURAVIY ISHLARNI TASHKIL ETISHDA ZAMONAVIY TARG'IBOT TEXNOLOGIYALARI: O'ZBEKISTON VA XORIJ TAJRIBASI .....	638-642
<i>Hashimova Gulsina Ismoyilovna</i>	
HARBIY IJTIMOIY ISH VA HARBIY MADANIYATNING HARBIY XIZMATCHILAR FAROVONLIGINI TA'MINLASHDAGI ROLI .....	643-648
<i>Karimova Gulnoza Yigitaliyevna</i>	
AXLOQIY MADANIYAT TUSHUNCHASINI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIY ZARURIYATI .....	649-655
<i>Sharipova Kamola Usmonjonovna</i>	
YANGI O'ZBEKISTONDA GENDER TENGLIKNI TA'MINLASH BO'YICHA ILG'OR XORIJUY DAVLATLAR TAJRIBASINI MILLIY STRATEGIYAGA TRANSFORMASIYALASH ISTIQBOLLARI .....	656-661

**Djurakulov Sherzod Davronovich**  
Sharof Rashidov nomidagi Samrqand Davlat  
Universiteti Arxeologiya kafedrasi tayanch doktoranti.  
[djurakulov95@bk.ru](mailto:djurakulov95@bk.ru)

## **SAMARQAND VILOYATI HUDUDIDI TOSH DAVRI ARXEOLOGIYASINING O'RGANILISHI TARIXI**

**Annotatsiya.** Zarafshon vodiysi, uning tog'li rayonlari odamzodning ilk ajdodlari tomonidan qadimgi tosh davrining mustye bosqichidan boshlab o'zlashtirilgan. Bu haqda dastlabki ma'lumotlarni Samarqand davlat universitetining arxeologi D.N.Lev asarlarida o'qish mumkin. Keying yillarda mustye davriga tegishli yodgorliklar Qoratov-Nurota tog' tizmalarining Vouslysh tog'i janubiy yonbag'ridan, Zirabuloq va Ziyovuddin tog' etaklaridan (Zirabuloq va Qo'tirbulok) topib o'rorganildi. Maqolada Samarqand vohasi qadimgi jamoalarining qo'lga kiritgan ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy yutuqlari insoniyat jamiyatini rivojida munosib o'rniiga ega ekanligi, Samarqand viloyati hududidi tosh davri arxeologiyasining o'r ganilishi tarixi masalalari yoritiladi.

**Kalit so'zlar:** Samarqand viloyati, Zarafshon daryosi, arxeologik tadqiqot, Omonqo'ton, Takalisoy, paleolit, Samarqand makoni, mezolit va neolit davrlari.

---

**Sherzod Davronovich Djurakulov**  
Doctoral student at the Department of Archeology of  
Samrqand State University named after Sharof Rashidov

## **HISTORY OF STUDY OF STONE AGE ARCHEOLOGY IN SAMARKAND REGION**

**Abstract.** The Zarafshan valley and its mountainous regions were occupied by the first ancestors of mankind from the early stone age. Preliminary information about this can be read in the works of archaeologist DNLev of Samarkand State University. In the following years, the monuments belonging to the Mustye era were found and studied on the southern slopes of Mount Vouslysh of the Karatov-Nurota mountain ranges, at the foothills of Zirabulok and Ziyovuddin (Zirabulok and Kotyrbulok). In the article, the social, economic and cultural achievements of the ancient communities of the Samarkand oasis have a worthy place in the development of human society, and the issues of the history of the study of the archeology of the Stone Age in the territory of the Samarkand region are highlighted.

**Keywords:** Samarkand region, Zarafshon river , archaeological research , Amonko'ton , Takalisoi, Paleolithic , Samar region , Mesolithic and Neolithic periods.

---

**Шерзод Давронович Джуракулов**  
Докторант кафедры археологии Самаркандский  
государственный университет имени Шарофа Рашидова

## **ИСТОРИЯ ИЗУЧЕНИЯ АРХЕОЛОГИИ КАМЕННОГО ВЕКА ТЕРРИТОРИИ САМАРКАНДСКОЙ ОБЛАСТИ**

**Аннотация.** Зерафшанская долина, ее горные районы были освоены ранними предками человека, начиная с мустьевской стадии древнего каменного века. О первых сведениях об этом можно прочесть в произведениях археолога Самаркандинского государственного университета Д. Н. Льва. В последующие годы памятники, относящиеся к эпохе мустье, были обнаружены и исследованы на южном склоне горы Воуш горного хребта Карагатай-Нурата, в предгорьях Зираулака и Зиявудина (Зираулак и Котырбулак). В статье освещаются социальные, экономические и культурные достижения древних общин Самаркандинского оазиса, имеющие достойное место в развитии человеческого общества, вопросы истории изучения археологии каменного века на территории Самаркандинской области.

**Ключевые слова:** Самаркандинская область, река Зарафшан, археологические исследования, Аманкутан, Такалисой, палеолит, Самаркандинская стоянка, мезолит и неолит.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SP1342V3I12.1Y2023N26>

Samarqand viloyati – O'rta Osiyoning Markaziy qismida, Turkiston – Oqtov bilan Zarafshon tizmalari orasida joylashgan. Zarafshon vodiysining uzunligi 781 km ni tashkil qiladi va O'zbekiston hududida uning uzunligi 480 km bo'lib, bu qismida 3 ta, ya'ni Samarqand, Buxoro, Qorako'l vohalari joylashgan.

Samarqand viloyati shimoldan G'ubdintog' – Oqtog', janubdan Qoratepa – Zirabuloq-Ziyovuddin kabi uncha baland bo'lмаган tog'lar bilan o'ralgan. Zarafshon vodiysi bu vohada 50 km gacha kengayib, Navoiy shahridan o'tgach, vodiy yana torayib boradi. Qiziltepa va Oftobachi qirlari bir-biriga juda yaqinlashib, kengligi 8-10 km dan iborat Hazar yo'lagini hosil qiladi. Vohaning yer yuzasi tekis bo'lib, uni Zarafshon daryosi va vaqtincha oqar suvli soylar kesib parchalagan, ba'zi yerlarida chuqur jarliklar hosil qilgan. Umuman, Samarqand viloyatining hozirgi relyefining shakllanishida Zarafshon daryosining doimiy va vaqtli irmoqlari hamda shamol muhim rol o'ynagan.

Zarafshon vodiysining ustki qismi asosan, to'rtlamchi davr allyuvial jinslari qoplagan uchlamchi davr cho'kindi jinslaridan tarkib topgan. Bu yerda neogen davrigacha dengiz bo'lgan va Alp orogenezida vodiy quruqlikka aylangan. Demakki, Samarqand tarixi o'tmishi va geologomorfologik jihatdan shakllanishi nihoyatda qadimgi zaminlardan ekanligi va odamzod bu yerlarni paleolit davridan e'tiboran o'zlashtirib, madaniyat yaratib kelingan qadimiy o'lkalardan biri ekanligi isbotlangan.

Samarqand viloyatining qadimgi tarixini arxeologik jihatdan o'rganishga bo'lgan e'tibor, asosan, XIX asrning 2-yarmidan boshlangan bo'lsa-da, ammo XX asrning 40-60-yillarida bu sohada yirik ilmiy kashfiyotlar qilindi. Harakatga tushgan arxeologik ekspeditsiyalarning izlanishlari voha paleolit, ya'ni qadimgi tosh davrining o'rta bosqichidayoq, bundan 100 ming yillar ilgari odamzod tomonidan o'zlashtirilib, o'z davriga xos yuksak madaniyat yaratganligi va bu tarixiy jarayon uzlusiz, peshma-pesh rivojlanishda bo'lganligi masalalari ilmiy jihatdan isbotlandi [2.3-5].

Vohaning eng qadimgi tarixini arxeologik izlanish yo'li bilan o'rganishni dastlab boshlab bergen olimlardan biri D.N.Lev bo'lib, uning ilmiy faoliyati esa alloma ustozlar I.Mo'minov, Ya.G'ulomov, V.Shishkinlar tomonidan doimiy qo'llab-quvvatlanib turganligi tufayli qiziqarli natijalarga erishildi. D.N.Lev Samarqand davlat universitetida mehnat qilgan yillari (1943-1969) tarixchi talabalar va aspirantlar ishtirokida vohada keng ko'lamlı dala arxeologik qidiruv ishlarini amalga oshirib, muhim ilmiy natijalarga erishdi.

Ma'lumki, 1938 yil Surxondaryoning Boysun tog'ida o'rta paleolitga oid Teshiktosh makonining o'rganilishi fanda katta shov-shuvlarga sazovor bo'lgan edi. Teshiktosh g'or makonining o'rganilishi Vatanimiz tarixini qariyb 100 ming yillarga chuqurlashtirib yuborilganligi bilan ham ahamiyatli edi. Bu ilmiy yangiliklar Zarafshon havzasida arxeologik

ishlarni yangitdan yo'lga qo'yishga ham muhim omil bo'ldi. Arxeolog D.N.Lev ibridoiy davrda Boysun tog'ida odamzodning tanho yashamaganligini g'oyaviy jihatdan asoslab, Zarafshon vodiysi tarkibidagi Samarqand vohasini arxeologik o'rganishni maqsad qilib olib, ekspeditsiya uyushtirdi va 1947-1964 yillar davomida tosh davrining deyarli barcha taraqqiyot bosqichlariga mansub moddiy madaniyat yodgorliklarini topib o'rgandi, natijada Samarqand mintaqasining ibridoiy davr tarixini ilmiy jihatdan tiklashga erishdi. Jumladan, Omonqo'ton, Takalisoy o'rta paleolit davri yodgorliklarini o'rganib, Samarqand vohasi bundan 100 ming yillar ilgari odamzod tomonidan o'zlashtirilib kelinganligi va madaniy hayot uzliksiz davom etganligi isbotlab berildi.

1939 yilning martida Samarqand muzeyi arxeologi N.G. Xarlamov tomonidan **Samarqand makoni** ochildi. Makon Samarqand shahri markazida, uncha katta bo'lмаган Chashmasiyobnning o'ng sohilida (Zarafshon daryosi irmog'i) joylashgan. Soyning oqimi bo'ylab pastroqda platina bilan o'ralgan va shu tarzda makon terrasasimon tumshuqda, sun'iy ko'l sathidan 4-5 metrlar balandlikda joylashgan (Yoshlar ko'li). Yodgorlik topilganidan keyin rekognossiyalovchi xarakterdagi qazishmalar o'tkazilgan.

Yodgorlikni keyingi tadqiqotlari boshlanib qolgan ikkinchi jahon urushi tufayli to'xtab qoldi. Shu yillarda O'zbekistonga SSSR FA, Belorussiya FA va qator Oliy o'quv yurtlarining jamoalari evakuatsiya qilindi. Ular SSSR FA O'zR Filialining shakllanishiga asos soldilar. 1943 yilda Leningraddan Samarqandga tosh davri mutaxassis D.N. Lev evakuasiya qilingan va Samarqand makonining uzoq davom etgan tadqiqotlari uning nomi bilan bog'liqdir. Shuningdek uning tomonidan Omon-Qo'ton va Takaliksoy g'or makonlari ham ohib o'rganildi.

Omon-Qo'ton g'ori 1947 yilda ochilgan. Makon Chaqlqulyon tog'larida dengiz sathidan taxminan 1300 m balandlikda, Samarqand shahridan 45 km janubroqda joylashgan. Tadqiqotlar 10 yil davom etgan. Omon-Qo'ton g'ori tarix fakulteti talabalarining amaliyoti uchun malakaviy tajriba maydoni sifatida foydalanilgan va uning uzoq yillar o'rganilishi aynan shu bilan bog'liq. Topilmalarning juda katta qismini hayvonlarning suyak qoldiqlari tashkil qiladi (barcha topilmalarning 80 %). G'orning tosh buyumlari kolleksiyasi 200 tadan ortiqroq artefaktlardan iborat. D.N. Lev tosh industriyasining tahlili asosida Omon-Qo'ton Teshik-toshga nisbatan ham qadimgiroq davrlar bilan sanalangan va Teshik-tosh uning merosxo'ridir. Keyinchalik ushbu nuqtai-nazarni A.P. Okladnikov qo'llab quvvatlagan [5.144-158].

D.N. Lev 1952 yilgi dala tadqiqotlari mavsumida Takalisoy g'orini ochgan va u Samarqanddan 50 km janubiy-sharqda joylashgan. Yodgorlikning madaniy qatlamlaridan 10 taga yaqin tosh buyumlar va hayvon suyaklari bo'laklari yig'ib olingan. Takalisoy industriyasining tahlili asosida D.N. Lev yodgorlikni so'nggi muste davri bilan sanaladi [4.21-28]. N.X. Tashkenbayev va R.X. Sulaymonovlar "Takalisoyning kvarsli industriyasini ishlab chiqarish texnologiyasi va tipologiyasiga ko'ra Qo'tirbuloqning quyi qatlamlariga o'xshashdir" deb topishgan [6.68-69].

Shu tarixiy jarayon oydinlashtirildiki, Samarqand muzofotining paleolit davrida odamzodning yashash va madaniyat yaratish uchun qulay tabiiy ekologik burchaklardan biri bo'lganligi, fauna va flora hamda odamzod hayoti uchun boshqa tirikchilik resurslariga serobligi boy arxeologik va paleontologik manbalar zamirida isbotlandi. D.N. Lev rahbarligidagi SamDU arxeologik ekspeditsiyasi 50-60-yillarda tosh asrining turli bosqichlariga mansub qator yodgorliklarni o'z shogirdlari M.Djuraqulov, Yu.Xolyushkin, Ye.Amarsova, N.Toshkenboyev va keyinchalik B.Sayfullayev, N.Xolmatov, O.Ergashevlar ishtirokida o'rganilib, natjalari yangi

tahlil va yondashuv asosida fanga kiritildi. Jumladan, Zirabuloq, Ziyovuddin, Qo'turbuloq, Go'rdara o'rta paleolit, Samarqand, Xo'jamazgil, Siyobcha kabi so'nggi paleolit makonlari, Qoratepa – Sazag'on tog'i yon bag'irlaridagi soylar qayirlaridan 30 dan ziyod mezolit va neolit davrlariga mansub makon-u manzilgohlar o'rganilib, voha tarixining birlamchi manbaviy asoslari tubdan boyitildi [1.14].

Ko'p yillik to'plangan manbalarning yangi yondashuv asosida o'rganilishi shu jarayonga aniqlik kiritdiki, Samarqand vohasida tosh davrida yaratilgan madaniyat o'zga yurtlardan kirib kelgan emas, balki mamlakatimiz hududida sodir bo'lgan tub, joyli moddiy-madaniy taraqqiyotning mahsuli ekanligidan guvohlik beradi.

Tosh davrida tirikchilik uchun o'tkir, ixcham mehnat qurollarini ishlab chiqarish xom ashysosi muhim hayotiy talablardan biri bo'lgan. Shuning uchun odamlar sifatli chaqmoqtosh zaxiralarini qidirish, izlab topish va foydalanishni hayotiy zaruriyat deb tushungan. Arxeologlarimiz ibridoiy odamlar foydalangan sifatli chaqmoqtosh konlarini topib o'rgandilar. Shulardan, Samarqand shahridan 6-7 km sharqroqda joylashgan Cho'ponota yassitog'i tepaligidan, Navoiy shahri yaqinidagi Uchtut qishlog'i atrofidan sifatli chaqmoqtosh konlari topilib o'rganildi [7.12]. Bu konlardan odamzod guruhlari butun tosh asri davomida foydalanib kelishganlar. Jumladan, Samarqand so'nggi paleolit davri (bundan 50-12 ming yillar avval) jamoalari, Sazag'on mezo-neolit (mil. avv. 12-4 ming yillik) jamoalari Cho'ponota konidan keng foydalanganligi ma'lum bo'ldi. Masalan, Samarqand paleolit makonida, Uchtutda chaqmoqtoshdan qurol yasash ustaxonlari mavjud bo'lganligi aniqlandi. Kishilar zaruriyatga binoan yirik tosh bo'laklarini manzilgohlariga keltirib, texnik parchalash yo'li bilan ehtiyojga ko'ra turli keskir qurollar ishlab chiqqanlar. Tajribali ustalar yosh avlodga o'z davrining qurol yasash texnologiyasini zukkolik bilan o'rgatishganlar va bu soha doimiy takomillashtirilib borilgan. Masalan, qulay tosh parchalaridan bolta, iskana va o'tkir chiqindilardan yoy o'qlari, teshgich, keskich, parmalovchi kabi asboblar yasashganlar. Mehnat qurollarining takomillashuvi tirikchilik talablaridan kelib chiqqan holda rivojiana borgan. Qurol yasash ilg'or texnologiyalari jamoalararo talabga binoan foydalanilgan bo'lib, bu hodisa jamoalar va qabilalararo madaniy tajribalarning uyg'unlashuvi va uzlusiz rivojlanishiga muhim omil bo'lib xizmat qilgan.

Samarqand viloyati tosh davri yodgorliklari manbalarini yangi zamонавиy yondashuv asosida o'rganish, bu yerda yashagan odamzod jamoalarining ijtimoiy hayoti, ma'naviy dunyosi haqida ilmiy xulosalar chiqarishga asos bo'ldi. Jumladan, odamzod vohani o'rta paleolit davridan boshlab o'zlashtira borganlar [5.3-8]. O'rta paleolit odam guruhlari qon-qardosh bosqichida bo'lib, endigina punalua (o'rtoqlik) oila tizimi shakllanib borayotgan davr bilan bog'liq edi. Bu oila shakli takomillasha borib, so'nggi paleolit davriga kelganda urug'doshlik tuzumining ilk davri, ya'ni matriarxat davri boshlanib, kishilar jamoa-jamoa bo'lib, oila onalar atrofida shakllana boradi va jamoada onalarning o'rni yuqori bo'lib, ular o'z nufuziga ega edilar. Bu jarayon muttasil, evolyutsion asosda rivojlanishda bo'lib, bu jamoalarning yashash tarzi bilan bog'liq manfaatlari ona urug'i jamoa talabiga bo'ysundirilgan edi. Ona urug' jamoalari so'nggi paleolit davrida ancha takomillashadi va doimiy rivojlanishda bo'lib, ayniqsa, mezo-neolit davriga kelib, ona boshlig'idagi urug'chilik jamoalari (matriarxat) gullab-yashnaydi va bu jarayon metallning kashf qilinib, hayotga kirib kelish davrigacha davom etadi. Metallurgiyaning kashf qilinishi esa ibridoiy jamoa tuzumining, shu jumladan, matriarxat tuzumiga putur

yetkazadi va jamiyatning butun ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy hayotini larzaga keltirib, ilk sinfiy tuzumga asos solinadi.

Paleolitning so'nggi bosqichi va mezolit-neolit davrining oxirlariga kelib, kishilik turmushida, shu jumladan, voha jamoalari hayotida, uning ijtimoiy, ma'naviy va madaniy turmush tarzida yirik o'zgarishlar sodir bo'ladi, ayrim joylarda o'zlashtiruvchi terim-termachilik va ovchilik xo'jaligidan ishlab chiqarish iqtisodi jarayoniga o'tish boshlanib, oddiy ziroatchilik va chorvachilik xo'jaliklari yuzaga keladi, kulolchilik, to'qimachilik kashf qilinadi, moddiy ne'matlar ishlab chiqish boshlanadi, xullaski, sivilizatsiyaning ilk poydevoriga asos solinib, odamzod ma'naviy va madaniy hayotida muayyan tarzda ilg'or o'zgarishlar sodir bo'ladi. Shu boisdan Samarqand vohasi qadimgi jamoalarining qo'lga kiritgan ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy yutuqlari insoniyat jamiyatni rivojida munosib o'rniqa ega ekanligini alohida qayd etish lozim.

Samarqand davlat universiteti arxeologiya kafedrasи jamoasi tomonidan O'rta Zarafshon vohasi tosh davri jamoalari moddiy madaniyati tadqiqoti izchillik bilan davom ettirildi. Xususan, M.Djurakulov Samarqand makoni tadqiqotini muvaffaqiyatli ravishda davom ettirgan. Keyingi yillardagi Qo'tirbulоq paleolit makoni, Siyobcha va Xo'jamazgil makonlari tadqiqotida, shuningdek, Afrosiyob shaharchasi o'rnidan, Registon maydonidan, Samarqandga yaqin Darg'om kanalining yonlaridan ko'plab tosh davri jamoalariga tegishli qiziqarli arxeologik manbalarning ham qo'lga kiritilishida Samarqand davlat universitetining arxeologik ekspedisiyasi xodimlarining ishtirokini alohida e'tirof etish maqsadga muvofiq bo'ladi.

1970-1980 yillari ilmiy tadqiqot mavzusiga doirasida amalga oshirgan O'rta Zarafshon vohasi, xususan, Qoratepa tog' massivi shimoliy yon bag'ri tosh davri yodgorliklari tadqiqotlarining natijalari sermahsul bo'lgan.

Xususan, Qoratepa tog' massivi shimoliy yon bag'ri O'rta Zarafshon vohasi bilan bog'liq bo'lib, voha bilan parallel holatda taxminan 50 kilometrlar chamasi masofada g'arb tomon cho'zilgan hudud hisoblanadi. O'rta Zarafshon vohasi Qoratepa tog' massivi shimoliy yon bag'rida M.D.Djurakulov rahbarligida SamDU arxeologik ekspedisiyasi xodimlari tomonidan tosh davri jamoalari moddiy madaniyatini o'rganish borasida muhim kashfiyot va yutuqlar qo'lga kiritilgan. Xususan, 1978-1983 yillarda Sazag'on 2 neolit makoni, 1986-1989 yillar maboynidagi Jangal 1 neolit makoni tadqiq etilgan. [3. 4-7]

Tadqiqotda kishilik tarixining tosh davriga oid 30 dan ziyod arxeologik obyektlar xaritaga olindi. Xususan, Jangal 1, Tepaqul 3 yodgorliklari tadqiqoti davom ettirilib, o'z navbatida Tepaqul 4, 5, Lolab, Olmabuloq, Qorakamar, Ochilg'or kabi qator yangi yodgorliklar kashf etilishiga erishildi (M.D.Djurakulov, N.U.Xolmatov). Tepaqul 3 yodgorligi 1990-1996 yillari mobaynida, Tepaqul 4 neolit makoni esa 1996-2004 yillarda tadqiq etildi. 2000 yil kuzida Sazag'onsoy va unga qo'shni bo'lgan soylar yon daralarida arxeologik qidiruv ishlarini amalga oshirayotgan paytda Katta Quruqsoy yon darasida Qorakamar g'or makonini kashf etishga erishilgan.

Sazag'on, Tepaqul, Jangal qishloqlari atrofida qator neolit davri makonlari qazib o'rganildi va boy arxeologik manbalar to'plashga erishildi. Bu manbalar bu hududda, umuman, O'rta Zarafshon havzasida bundan XII, VI-IV ming yillar ilgari yashagan urug'-jamoalarining turmush-tarzi, xo'jaligi, madaniy va ma'naviy hayoti haqida qiziqarli arxeologik ma'lumotlar berdi. Arxeologik ashyo-manbalarning guvohlik berishicha, sazag'onlik urug'-jamoalar ilk bor

o'troq dehqonchilikni kashf qilib, o'zlashtiruvchi xo'jalikdan ishlab chiqaruvchi xo'jalikka o'ta borib, sivilizatsiya sari intilib yashagan jamoalardan bo'lib chiqdi.

Bu muzofotdagi makonlardan topilgan ashylar sazag'onliklarning Zarafshon havzasida dastlab ishlab chiqarish xo'jaligining tashkil bo'lganligidan guvohlik berib, dastlabki o'troq dehqonchilikka o'tish esa ilk sivilizatsiyaning mahsuli sifatida namoyon bo'ldi.

Yuqorida keltirilgan O'rta Zarafshon vohasi Qoratepa tog' massivi shimoliy yon bag'ri tosh davri yodgorliklari tadqiqotlari natijasida voha mezo-neolit davri jamoalar moddiy-madaniyati o'ziga xos xususiyatlari, tarixiy davrlari ijtimoiy tuzumi, jamoalar turmush tarzi, xo'jalik mashg'ulotlari, ma'naviy madaniyati, o'zaro qo'ni-qo'shnichilik madaniy aloqalari, madaniyat genezisi masalasida qimmatli ma'lumotlar beruvchi arxeologik ashylarni qo'lga kiritishga erishildi. Mintaqada nafaqat neolit davri jamoalar, balki mezolit va hatto paleolit davri jamoalar ham yashab, o'ziga xos tarixiy taraqqiyotda uzlusiz moddiy madaniyat yaratishganligini ko'rsatdi va bu muzofotda tosh davriga oid "mikromadaniy voha"ni ajratish imkonini berdi.

### Адабиётлар/Литература/References:

1. Джуракулов М.Д., Холматов Н.У. Мезолит и неолит Среднего Зарафшана. –Ташкент, 1991.
2. Джуракурова Д.М. Зарафшон водийсининг тош ва бронза даври қабилалари маданияти. Номзодлик диссертацияси автореферати. -Самарқанд, 2009
3. Жўрақулов М., Аванесова Н., Амирқулов Б. Зарафшон воҳасининг ибтидоий маданияти. –Самарқанд, 1994. –Б. 4-7.
4. Лев Д.Н. Новые данные по палеолиту Узбекистана // Труды института истории и археологии. – Ташкент: Изд-во АН УзССР – № 7. 1955
5. Окладников А.П. Древние связи культур Сибири и Средней Азии // Бахрушинские чтения 1966 г. –Вып. 1: методология истории, всеобщая история, археология. Новосибирск, 1968. –С. 144-158.
6. Ташкенбаев Н.Х., Сулейманов Р.Х. Культура древнекаменного века долины Зарафшана. – Ташкент: ФАН, 1980. С. 144-75
7. Эргашев О.Т. Место памятников Кукаяз 1-8 в классификации центральноазиатских мастерских каменного века. Археология Евразийских степей №1, 2023.

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ  
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

*Nº 12/1 (3) – 2023*

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг  
долзарб муаммолари**” электрон  
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-  
сонли гувоҳнома билан давлат  
рўйхатига олинган.

**Муассис:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM”  
мастъалияти чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**  
100070. Тошкент шаҳри, Яққасарой  
тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-  
уй. Электрон манзил:  
[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)  
**Боғланиш учун телефонлар:**  
(99) 602-09-84 (telegram).